

## Oilada Bola Tarbiyasining Psixologik Xususiyatlari

*Baxtiyorova Munira Mansur qizi<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada oila haqida umumiy tushuncha, ota – ona munosabatlarining bola psixikasiga ta'siri va oilaning farzand tarbiyasida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, tarbiya, oilaviy munosabatlar, oila tarbiyasi, ota – ona munosabatlari.

“Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!” – deya takidlagan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Shundan ko'rish mumkinki har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, butun organizm o'z faolyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishda har bir hujayraning munosib o'rni bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga ezgu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, milliy istiqloq g'oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi. Oila kamolatga yetkazish poydevori. Oila – tarbiya o'chog'i. Har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakillanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday yozadi: “Har qanday millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakillantirish va yuksaltirishda xech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada shakillanadi”. Oilada bola tarbiyasiga to'xtalar ekanmiz “ Qush uyasida ko'rganini qiladi “ degan maqolni tahlil qilishning o'zi kifoya. Ya'ni har qanday bola o'z oilasida o'zlashtirgan tajribalaridan hayoti davomida foydalanadi va uni kiyinchalik o'z farzandlariga ham o'rgatadi. Aynan oila bag'rida bola boshlang'ich ijtimoiylashuvni oladi. Oila a'zolarining munosabatlari misolida u boshqalar bilan muloqat qilishga o'rganadi, xulq atvori va munosabatlar shakillarini tushinib boradi va bu tushunchalari uning o'smirlik va balog'at yillarida ham saqlanib qoladi. Shunday qilib ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan ota va ona dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o'zligini anglash, balki o'zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Kuzatishlarimiz shuni isbotladiki, oilaning to'liq bo'lishi, yani unda ham ota, ham onaning tinchlik – totuvlikda yashashlari va unda normol insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog'lom, aqilli, kuchli iroda sohibi bo'lib yetishishiga imkon beradi. Lekin ayrim oilalarda er va xotin o'rtasida samimiy, iliq munosabatlarning yo'qligi, tashqi tomondan nomiga oila qurganliklari, ma'nau esa bir – birlariga nisbatan begonaday bo'lganliklari bois bu yerda o'zaro munosabatlar hamisha tarang, yuzaki bo'lib boradi. Tabiiy bunday munosabatlar nafaqat ularning o'ziga balki ularni o'rab turgan boshqa qarindoshlar, ayniqsa farzandlarining psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. “ Ko'cha bolalari “, “ tarbiyasi og'ir bolalar “, voyaga yetmay turib jinoyatga qo'l urgan o'smirlar aksaryat xolatlarida aynan shunday oilaviy muhitning qurbonlari hisoblanadi. Yana bola psixikasiga ta'sir ko'rsatuvchi eng kuchli narsa bu ajralish hisoblanadi. Ajralish faqatgina ajralgan er – xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham ta'sir ko'rsatar ekan. Ayniqsa otasiz o'sayotgan qizning ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir qiladi. Bu esa nafaqat qiz bolaning bolalik davrida balki kelgusida o'z mustaqil oila qurganda o'z asoratini ifodalashi mumkin. Ko'p tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha hamda F. Ro'ziqulov tadqiqotlarida ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topganligi asosida o'z otasiga mehri va hurmati yetarli ravishda shakillanmagan qiz kelajakda oila qurganda turmush o'rtog'iga ham hurmatini yetarli ravishda ifodalay olmaydi. Shundan ko'rinib turibdiki oiladagi nosog'lom psixologik muhit bola tarbiyasiga, uning psixikasiga qattiq ta'sir ko'rsatar ekan.

Oila tarbiyasi – oilada ota – ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bollarni tarbiyalash, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch – oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota – ona obrosining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish va bolaning tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab - quvatlash kerak. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvofaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasi kabi katta ma'sulyat birinchi navbatda ota – ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida aytish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch – qudrat bu – onadir. Ota ko'pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojini qondirish va ta'minlash bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalarining tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. Shunga ko'ra ona bilan bola ko'proq birga bo'ladi. Axir xalqimiz: “ Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi “ deb bejiz aytmagan. Yuksak axloq – odob aqidalari bola ruhiga ona suti bilan kiradi. Xulosa qilib aytish kerakki oilada

<sup>1</sup> Nukus Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Bunda ota – ona, oiladagi katta - yu kichik, hamma bir yoqadan bosh chiqarishi, harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag'batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning boshqa vositalarini qo'llashda ham yakdillik bo'lishi lozim. Odatda ko'pincha bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani otasi taqiqlab qo'yadi yoki otasi bergan jazoni onasi rad etib buzadi, bolaning bir qilig'ini buvisi maqtasa, shu qilig'i uchun otasi uni koyiydi. Bunday telba – teskarilik, avvalo bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahimdil onasi va ko'ngli bo'sh buvisi o'rtasida yo'l topishga odatlanadi. Demak oilada farzand tarbiyasida hamma hamjihatlikda ish yuritisa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bola tarbiyasi qiyin masala hisoblanadi, shuning uchun juda ko'p qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bolani tarbiyalashni asosan ona qornidaligida boshlash kerak. Chunki bola tashqi muhitdagi ta'sirlarni onasidan oldi qabul qiladi va shunga javob reaksiyasini hosil qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Ishanova M. “Oila pedagogikasi” ( o'quv qo'llanma ) Andijon – 2019.
2. N.Ismoilova, D.Abdullayeva “ Ijtimoiy psixologiya ” Toshkent – 2013.
3. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidov, K.Matnazarova “ Pedagogika ” ( Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti ) Toshkent – 2013.
4. G'.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'inov, F.A.Akromov, G.Solihova, G.Niyozmetova “Oila psixologiyasi” Toshkent-2008.
5. Vasila Karimova “Oila psixologiyasi” Toshkent – 2007.
6. <https://uz.m.wikipedia>.
7. <https://www.xabar.uz>siyosat>>.